



ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2017 yil yanvar-dekabr

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning 12 oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,4 foizga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 11,6 foizni tashkil etdi. Iste'mol tovarlari, tamaki mahsulotlari, benzin va alkogolli ichimliklarga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,5 foizga ko'payishiga olib keldi.

2017 yil yanvar-dekabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Toshkent shahri (22,5 foiz), Toshkent (10,6 foiz), Farg'ona (8,7 foiz), Samarqand (8,5 foiz) va Andijon (7,7 foiz) viloyatlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 0,7 foizga oshib, 3,3 mln. so'mni tashkil etdi (2016 yil yanvar-dekabr oylarida 2,8 mln. so'mni tashkil qilgan edi).



O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahari (9,7 mln. so'm), Navoiy viloyati (4,6 mln. so'm) va Toshkent viloyatida (3,9 mln. so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 3,1 trln. so'mni tashkil etdi va 1,8 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 2,9 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	3 265,7	100,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 945,1	101,2
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	2 725,9	100,3
Buxoro	3 544,5	98,9
Jizzax	2 619,4	98,2
Qashqadaryo	2 307,9	98,3
Navoiy	4 570,5	98,5
Namangan	2 371,8	101,3
Samarqand	2 446,5	99,3
Surxondaryo	2 870,0	98,1
Sirdaryo	2 297,4	100,6
Toshkent	3 930,4	102,1
Farg'ona	2 575,1	101,9
Xorazm	2 191,9	98,4
Toshkent sh.	9 727,7	103,6

O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,7 foizga o'sdi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 88,4 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 13,4 trln. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 12,7 foizni tashkil etdi.



Davlat statistika qo'mitasining
Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul: A.Nadirov
(0371) 230-80-42